

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“Boshlang'ich ta'lim uslubiyati” kafedrası

5141600- Boshlang'ichta'limva sport, tarbiyaviyish yo'nalishi 3-kurs talabasi

Haydarova Majnunaning

“Ona tili o'qitish metodikasi”

fanidan

KURS ISHI

MAVZU: “Ikkinchi sinf o'qish darsligini o'rgatishning mohiyati, mazmuni va tahlili”

Ilmiy rahbar: Hazratqulov M.

Samarqand-2013.

REJA:

I.KIRISH

II. ASOSIY QISM

1.O'qish malakalari va ularni takomillashtirish usullari.

2.Boshlang'ich sinfda 2-sinf o'qish darslari va o'qish turlari.

3. 2-sinf o`qish darslarida bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga o`rgatishda ilmiy ommabop asarlarni o`qitishning ahamiyati.

4. Ilmiy ommabop asarlarni o`rgatish mavzusidagi dars namunasi.

III.XULOSA.

Adabiyotlar ro'yxati.

I.KIRISH

Badiiy asar ustida ishlash murakkab jarayon bo'lib o'qituvchi 2-sinf o'qish darslarining ta'lim-tarbiyaviy vazifalari badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning tayyorgarligini hisobga olishni taqozo qiladi.

2-sinf o'qish darslari, o'qish samaradorligini ijobiy tomonga ta'sir qilishning eng qulay usulidir. Sinfda va sinfdan tashqari 2-sinf o'qish darslari boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha predmet dasturlarining bo'limlari bilan bevosita bog'liq. 2-sinf o'qish darslarida o'tilgan mavzular asosida badiiy kitoblar oxtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb metodik manba ekanligini aniqlash, ularning didaktik asosini belgilash ham mashg'ulotning predmeti hisoblanadi.

2-sinf o'qish mashg'ulotlarida va unga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini shakllantirish kurs ishi mavzusi bo'yicha olib borayotgan tadqiqot ishimizning maqsadi hisoblanadi.

Ushbu kurs ishi kirish, ikki bob, har bir bobda ikkitadan qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1.BOB. 2-sinf o'qish darslarining maqsadi va vazifalari.

1.1. O'qish malakalari va ularni takomillashtirish usullari.

O'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o'tkaziladi.

Tayyorgarlik ishlarining vazifalari:

- 1.O'quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta'sir etadigan yangi ma'lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan faktlarni o'quvchilar o'z hayotida kuzatishlari bilan bog'lay olishlariga sharoit yaratish.
- 2.Yozuvchining hayoti bilan tanishtirish, yozuvchiga, uning hayotiga ijodiga qiziqish uyg'otish.
- 3.O'quvchilarni asarni emotsional idrok etishga tayyorlash.
- 4.Asar mazmunini tushunishga xalal beridigan so'zlarning lug'aviy ma'nolarini tushuntirishdan iborat.

Tayyorgarlik ishlarining shakllari xilma-xil bo'lib, o'qituvchi asar mazmunini va sharoitga qarab ish turini tanlaydi. Tayyorgarlik davri uchun 2-5 daqiqa ajratiladi..

Matn ifodali o'qib beriladi. (2-sinfda o'rganiladigan "Mehribon qiz" matni magnitofon orqali o'qib eshittiriladi). O'qituvchi o'quvchilarga umumiy taassurotlarini aytishni talab qiladigan savollar beradi.

1. Hikoyaning qaysi o'rni sizga yoqdi?
2. Qahramonlardan qaysi biri sizga ayniqsa yoqdi?
3. Hikoya o'qilganda siz qaysi o'rinda juda xursand bo'ldingiz?

kabi savollar beriladi¹

Badiiy asar ustida ishlashning 2-bosqichi tahlil qilishdir. Bu bosqichning vazifasi: syujet rivojining sabab natija bog'lanishini belgilash, ishtirok etish

1. ¹ Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X. Ona tili o'qitish metodikasi. (Darslik) Toshkent, Noshir, 2009

shaxslarning xulq-atvorini va asosiy xususiyatlarini aniqlash, asar kompozitsiyasini ochishdir. Tahlil jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi.

Tanlab o'qish. Bunda o'quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o'qiydi. Vazifa asarning faktik mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bog'lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o'qilgan matnga o'z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo'lishi mumkin. 4-sinfda "Tabiatdagi o'zgarishlar berilgan qismlarini topib o'qing (Oltin kuz)", "Taqachining nasihati"ni o'qing.

Tanlab o'qish matn ustida ishlashning eng samarali usulidir. U o'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlarini o'stirish bilan ularning ijodiy tasavvurini, nutqi va zihnini o'stirishga yordam beradi.

O'quvchilarni savol berishga o'rgatish.

Metodistlarning fikricha, to'g'ri berilgan savolda yarim javob tayyor bo'ladi. O'quvchilar matnni ongli o'zlashtira olsalargina, u yuzasidan savol bera oladilar. O'quvchilarni savol berishni o'rgatishni 2-sinfдан boshlash maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar albatta savolni matn mazmuni bilan bog'liq holda tuzishdan o'rganadilar. Keyinchalik muhokama va ijodiy savollar berishni ham o'zlashtirib oladilar.

Matnni tasvirlash. Matnni 2 xil tasvirlash mumkin: 1) so'z bilan tasvirlash; 2) grafik tasvirlash.

So'z bilan tasvirlash o'ziga xos murakkab ish turi bo'lib, unda manzarani so'z yordamida aniq qayta tiklash talab etiladi. Bunda so'zlarni aniq tanlashga e'tibor qaratiladi. Turli tabiat manzaralarini, qatnashuvchi kishilarning tashqi ko'rinishini, voqea sodir bo'lgan joylarni tasvirlash topshiriq qilib berilishi mumkin.

Matnni tasvirlashni darslikda berilgan rasmni matndagi shu rasmga mos qismini taqqoslab tasvirlashdan boshlash kerak.

Grafik tasvirlash ko'proq uyda bajariladi. Buning uchun o'quvchilar tasvirlanadigan matn qismini ajratadilar, uni diqqat bilan o'qib chiqadilar, mazmunini o'zlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar.

Asar rejasini tuzish. Reja matn mazmunini ongli va chuqur tushunishga, asosiy fikrni ajratishda, voqealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining o'zaro bog'lanishini tushunishda o'quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stiradi. Ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo'lishga va har bir qismning asosini topishga o'rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishlari savod o'rgatish davridayoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmuniga mosini topib qo'yish hisoblanadi. Bunday mashqqa o'rgatishda o'qituvchi sarlavha asosiy fikrni ifodalashini ta'kidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu sarlavha nima uchun mos yoki mos emasligini tushuntiradi. Reja tuzishga tayyorgarlik ishining 2-turi o'qituvchi rahbarligida tanlab o'qish hisoblanadi, bolalar matndan o'qituvchi bergan savolga javob bo'ladigan o'rinni topib o'qiydilar.

Reja tuzish osondan qiyinga tamoyili asosida asta murakkablashtirilib muayyan izchillikda o'tkazib boriladi. 1-sinf o'quvchilari o'qilgan kichik matnga o'qituvchi rahbarligida so'roq gap tarzida sarlavha tanlash, 2-sinfda kichik maqolaning rejasini o'qituvchi rahbarligida so'roq yoki darak gap tarzida tuzish, 3-sinfda o'qilgan matn rejasini jamoa bo'lib tuzish, 4-sinfda mustaqil reja tuza olishlari kerak.

Reja tuzish uchun so'roq va darak gaplardan va ayrim hollarda atov gaplardan foydalanish mumkin, faqat har bir rejada bir turdagi gaplar ishlatilishi zarur. SHunday qilib, o'quvchilarda matn ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirishda ular diqqati ishning mazmuni va bajarish yo'llariga qaratiladi.

Bolalar o'qilgan matn mazmunini mustaqil ravishda qayta hikoya qilishlari, matn yuzasidan sodda reja tuza olishlari, uning asosiy mazmunini ajrata olishlari, o'qilgan matnni to'la, qisqartirib tanlab qayta hikoya qilishlari zarur.

Ifodali o'qish va o'zaro nutqiy faoliyat jarayonida bolalarning adabiy talaffuz me'yorlari shakllanadi. O'quvchilar nutqining faollashuvi nutqning grammatik shakllarini to'g'ri qo'llash va to'g'ri talaffuz etish bolalar nutqining ravon ifodali bo'lishiga yordam beradi. Ifodali o'qishga o'rgatishda:

- a) nafasdan to'g'ri foydalana olish;
- b) adabiy til talaffuz normalarini yaxshi bilish;
- d) so'z bo'g'in va tovushni to'g'ri aniq talaffuz etish.

O'qish vaqtida badiiy asar namunasida ifoda etilgan his tuyg'uni, yozuvchi yoki qahramonning ichki kechinmalarini asarning mazmunini yecha olishga erishish. O'qishdagi normal tezlik o'qilganning ma'nosini to'liq anglab olishga yordam beradi. Normal tezlikda o'qish orqali bola gapdagi asosiy mazmunni anglaydi. Aksincha, ortiq darajada o'qish orqali mazmunini tushunishga to'sqinlik qiladi. O'qish tezligini rivojlantiruvchi asosiy shartlardan biri to'g'ri o'qishdir. O'qish tezligini oshirish uchun bola ravon o'qiydigan bo'lishi kerak. 1-sinfda o'quvchilar o'qish tezligi davlat talablariga nisbatan 25-30 so'zdan iborat bo'lishi kerak. 2-sinfda esa 40-50 so'z, 3-sinfda 60-70, 4-sinfda 80-90 so'zdan iborat bo'lishi kerak. O'qish tezligi o'qilayotganning ma'nosini tushunish va qabul qilishga bog'liq. Juda sekin o'qish ham ongli bo'lishga halaqit beradi. O'qituvchining o'qish tezligi yuzasidan ko'rsatilgan namunasi uning normal holatda so'zlashish tempiga teng kelishi kerak. O'quvchilarni ham shunday o'qishga o'rgatish lozim. O'qish tezligini normallashtirishda quyidagi usullardan foydalanish lozim.

1. Normal tezlikda o'qish namunasini ko'rsatish.
2. Ichida o'qish yuzaki bo'lmasligi uchun topshiriqlar berish yo'li bilan tekshirish.

Ovoz chiqarib o'qishda o'qilganning mazmuni yuzasidan savollarga javob olish. Bunda ba'zi o'quvchilarning tekst mazmuniga qaramay tez o'qishlariga chek qo'yiladi.

Ular o'qiganning mazmunini aytib berishga to'g'ri kelishini o'ylab o'qiydigan bo'ladilar.

Dialogdan o'qitish. Bunda bir o'quvchi savolni o'qisa ikkinchi javobni o'qiydi.

She'r yodlash. Bolalar she'rni o'rta tezlikda o'qishlari kerak. Aks holda ularning o'qishlari ifodali bo'lmay qoladi.

O'qish tezligi muhit hisobiga o'lchanganda so'z yoki harf sanaladi.

Matn qismlarini navbat bilan o'qitish. Bunda o'qish tezligi past bolalar tez o'qiydiganlarga tenglashgisi keladi. Yoki aksincha.

Boshlang'ich sinfni tugatdan o'quvchilar o'qish ko'nikmalari quyidagicha bo'lsa davlat talabiga hos bilimga ega bo'ladilar.

Adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda ongli to'g'ri ongli va o'rtacha tezlikda (ovoz chiqarib) bir daqiqada 90-100, ifodali va ichdan 110-130 so'z o'qisalar.

Boshlang'ich sinflarning 2-sinf o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. o'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor 2-sinf o'qish darslarida yuzlashadi.

2-sinf o'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlari (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi..

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS va «Ona tili» o'quv dasturida o'qish ta'limi oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o'qishni to'g'ri tashkil qilish, o'qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Ma'lumki, sinfda o'qish asosida badiiy va ilmiy-ommabop matnlar turadi. O'quvchilarni matn bilan tanishtirish o'qishga tayyorgarlik bosqichidan boshlanadi.

Tayyorgarlik bosqichi yozuvchilar haqida ma'lumot berish, o'quvchilarni asarda tasvirlanadigan voqyea-hodisalarni idrok qilish, asar pafosini his etish, notanish va ko'p ma'noli so'zlar, murakkabroq tarzdagi obrazli ifodalarni izohlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Agar asar yil fasllari haqida bo'lsa, tabiat qo'yniga sayohat uyushtirish ham sinfda o'qish muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

«O'qish kitobi» darsliklaridan turli mavzudagi asarlar o'rin olgan. Vatanparvarlik, atrofimizdagi olam, mehnatsevarlik kabilar o'qish darsliklaridagi keng qamrovli mavzulardan bo'lib, 2-sinfda «*Ona yurtim-oltin beshigim*» bo'limiga kiritilgan «*O'zbekistonim*» (H. Imonberdiyev), «*Istiqlol*» (J. Jabborov), «*O'lka*» (E. Vohidov), «*Yur tog'larga*» (U. Nosir), 3-sinfda «*Ona bitta, Vatan yagona*» bo'limidagi «*Vatanni suymak*» (A. Avloniy), «*Vatan mo'tabardir*» (X. Davron), «*Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi*» (Tohir Malik), 4-sinfda «*O'zbekiston - Vatanim manim*» bo'limidagi «*Serquyosh o'lka*» (Z. Diyor), «*Iqboli buyuksan*» (A. Oripov), «*Toshkentnoma*» (M. Shayxzoda) kabi asarlar misolida atroflicha tahlilga tortiladi.

Boshlang'ich sinflarning 2-sinf o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning 2-sinf o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy - estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi.

Shunga ko'ra 2-sinf o'qish darslarining yetakchi hususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

O'qish ta'limi bo'yicha o'quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo'lmaydi. Negaki matn tagzaminidagi tarbiyaviy g'oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda, har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab yetilganda o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

2-sinf o'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqloq, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqloq, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularini uyg'otishdir.

«O'qish kitobi» darsliklaridagi materiallar sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan.

1-sinfda o'rgatiladigan «*Ajdodlarimiz-faxrimiz*», «*Ilm-aql chirog'i*», «*Zumrad bahor*», «*Kumush qish*» kabi mavzular 2-4 sinflarda ham davom ettiriladi. Natijada o'quvchilarning oldingi bilimlari to'ldiriladi va boyitiladi.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir.

Bu xildagi asarlar o'quvchilarni faqat o'tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi.

Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar. Jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo'lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada ayniqsa milliy istiqlol bilan bog'liq H. Imonberdiyevning «O'zbekistonim», J. Jabborovning «Istiqlol» (2-sinf), A. Rustamovning «Bayroq nima?», A. Obidjonning «O'ktam avlod» (3-sinf), S. Barnoyevning «Mangulikka tatigulik kun», Ullibibining «E'zoz» (4-sinf) mavzusidagi asarlari yaqindan yordam beradi.

2-sinf o'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.
2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.
3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.
4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.
5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy estetik tafakkurini o'stirish.
6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.
7. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari 2-sinf o'qish mashg'ulotlarida jarayonida hal qilinadi.²

2. ² Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X. Ona tili o'qitish metodikasi. (Darslik) Toshkent, Noshir, 2009

1.2.Boshlang'ich sinfda 2-sinf o'qish darslari va o'qish turlari

Boshlang'ich ta'limda o'qishning uch turidan foydalaniladi:

1. Ovozli o'qish.
2. Ichda o'qish.
3. Shivirlab o'qish

Ovozli o'qish ovozga asoslangan o'qish bo'lab, undan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi.

Ovozli o'qishning yakka, jo'r va rollarga bo'lib o'qish usullari mavjud. Yod aytish ham ovozli o'qishning bir shaklidir.

Ichda o'qish ham tovushga asoslangan, lekin unda ovozsiz o'qiladi.

Shivirlab o'qish yarim ovoz bilan o'qishdir. Malakali kitobxon o'qishning har uch turini bilishi zarur.

Ovozli o'qishning ham, ovozsiz ichda o'qishning ham, shivirlab o'qishning ham o'z qo'llanish o'rni va afzalliklari hamda kamchiliklari bor. Masalan, birinchidan, 2- sinf o'quvchilari ichda o'qiganda kam so'z o'qiydi, so'zning ma'nolarini tushunmay qoladi, o'qiganlarining mazmunini to'liq o'zlashtira olmaydilar. Ikkinchidan, ikkinchi sinf o'quvchilarida o'qish ko'nikmalari yaxshi shakllanmagani uchun ichda o'qish jarayonida ayrim so'zlarni noto'g'ri o'qish natijasida uning ma'nosini tushunmaganlar. Shularni nazarda tutgan holda 1- 2- sinflar ovozli va shivirlab o'qishdan foydalaniladi.

Ichda o'qish quyidagi afzalliklarga ega:

1. Bir vaqtning o'zida butun sinf o'quvchilari o'qiydi.
2. O'quvchilarda asar matni ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari takomillashadi.
3. O'qituvchi har bir o'quvchining mustaqil ishlash jarayonida o'zlashtirish darajasini aniqlaydi.
4. Ichda o'qishda ongli o'qishga talab, e'tibor kuchayadi.

Ichda o'qishda o'qituvchi o'quvchilar o'qishidagi kamchiliklarni aniqlay olmaydi. Bu undan foydalanishdagi kamchilikdir.

Ovozli o'qishning afzalliklari quyidagilar:

1. O'qituvchi o'quvchilarning xato va kamchiliklarini , o'qish ko'nikmalarini aniqlay oladi.
2. Kichik yoshdagi o'quvchilar ovoz chiqarib o'qisalar, matn mazmunini tez tushunib oladilar.
3. Ovozli o'qishdan kitobxon estetik zavq oladi.
4. Ovozli o'qishda ifodalilikka kata e'tibor beriladi.
5. Ovozli o'qish o'quvchilar lug'atini boyitish va nutqini o'stirishda kata ahamiyatga ega.

Maktabda o'qishning bu uch turi navbatma navbat almashtirib turiladi. 1-2-sinflarda ovozli va pichirlab o'qishdan ichga o'qishga o'tilsa, 3-4- sinflarda ichdan o'qishdan ovozli o'qishga o'tiladi. 3-4- sinflarda o'qishning turlaridan foydalanishda chegara qo'yilmaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'qishning hamma turiga bir xil talab qo'yiladi, ya'ni o'qish to'g'ri bo'lishi, tez, ongli va ifodali bo'lishi zarur.

II bob. 2-sinf o'qish darsligida umumlashtiruvchi darslarni tashkil etish usullari.

Asarni o'qishga kirishishdan oldin o'quvchilarni badiiy asarni o'qishga tayyorlash lozim bo'ladi. Chunki o'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o'tkaziladi. Tayyorgarlik ishlarining vazifalari quyidagilar:

1. O'quvchilarning asarda aks ettirilgan voqyea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta'sir etadigan yangi ma'lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan dalillarni o'quvchilarning o'z hayotida kuzatganlari bilan bog'lay olishlariga sharoit yaratish.

2. Yozuvchining hayoti va ijodiga qiziqish uyg'otish.

3. O'quvchilarni asarni hissiy idrok etishga tayyorlash.

4. Asar mazmunini tushunishga xalal beradigan so'zlarning lug'aviy ma'nolarini tushuntirishdan iborat.

Tayyorgarlik ishlarining shakllari xilma-xil bo'lib, o'qituvchi asar mazmuni va sharoitga qarab ish turini tanlaydi. Tayyorgarlik davrida nimalar haqida ma'lumot berish maqsad qilingan bo'lsa, avvalo o'quvchilarning o'zlaridan ular haqida bilganlari so'rab aniqlanadi.

Kinofilm va diafilmlardan o'quvchilarni asarni o'qishga tayyorlash davrida foydalaniladi. Ular o'quvchilarning tasavvur qilishlariga, tushunchalarini oydinlashtirishga, ongli o'qish va emostional idrok etishlariga yordam beradi. Film namoyishida tug'ilgan ayrim savollariga yangi o'qiydigan asarlaridan javob topadilar. Tayyorgarlik ishlarini bunday uyushtirish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Boshlang'ich sinfda shoir, yozuvchilarning o'z tilidan o'qigan asarlari yoki ular haqida boshqalar aytgan fikrlarni magnit tasmasidan eshittirilsa yoki video tasmadan ko'rsatilib, unga o'qituvchi hikoyasi qo'shilsa darsning samaradorligi yanada oshadi. Masalan, 4- sinfda O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi

aytilgach, A.Oripovning o'zi aytgan "O'zbekiston" she'ri qo'yib eshittirilishi mumkin.

O'quvchilarni mustaqil izlanishga o'rgatishning Yana bir usuli o'quvchilarga oldindan yozuvchi yoki asar yozilgan davr haqida kitoblar, manbalar tavsiya etilib, ulardan ma'lumotlar to'platiladi, albomlar tayyorlatiladi, so'ng o'quvchilar o'zlari aniqlagan ma'lumotlarni o'qib oyi so'zlab beradilar.³

Sinfdan sinfga ko'chish bilan yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi o'quvchilar bilimi ortib boradi. Asar muallifi bilan tanishtirishga qo'yilgan talablar ham ko'payadi. O'qituvchi qisqa ma'lumot berishdan yozuvchi hayoti bilan to'liqroq tanishtirishga o'tadi. Bunda u kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yoshiga mos imkoniyatlarni, ular yozuvchi bilan qay darajada tanish ekanligi va uning asarlaridan nimalarni o'qiganligini hisobga oladi.

3. ³ Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X. Ona tili o'qitish metodikasi. (Darslik) Toshkent, Noshir, 2009

1.2-sinf o`qish darslarida bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga o`rgatishda ilmiy ommabop asarlarni o`qitishning ahamiyati.

Boshlang'ich sinflarda ilmiy - ommabop asarlarni o`qitishdan asosiy maqsad bolalarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayoti haqida muayyan bilim berish, bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga va undan aniq bilim olishga o`rgatishdan iborat.

Tabiatshunoslikka oid va tarixiy mavzudagi maqolalarni o`qish bilan bog`liq holda tabiat hodisalarini kuzatish (*masalan, daraxt kurtaklarining bo`rtishi*), o`quvchilarni dehqonlar mehnati bilan tanishtirish, mamlakatimizda yuz bergan o`zgarishlarning guvohi va ishtirokchilari bo`lgan insonlar bilan uchrashuvlar uyushtirish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy - tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o`tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug` siymolar amalga oshirgan ishlar, tarixiy sanalar to`g`risida bilim beradi. O`qish darsliklaridan o`rin olgan *Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur* va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi matnlar o`quvchilarni nafaqat o`tmishimiz bilan tanishtiradi, balki ularning Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas`uliyatni teran anglashga ham yordam beradi. O`quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg`usi shu tariqa shakllanadi.

Vatanimiz o`tmishi haqida hikoya qilingan ilmiy - ommabop asarlar bilan tanishtirish va ularni tahlil qilish jarayonida o`quvchilar o`tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo`ladilar. Jamiyat taraqqiyoti haqida qisqacha bo`lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada, ayniqsa, milliy istiqlol bilan bog`liq mavzudagi asarlar tahliliga alohida e`tibor berish zarur.

Tarixiy mavzudagi maqolalarni unga mos rasmlar bilan bog`lab o`qitish kishilarning baxtli hayot uchun intilishlari, ota-bobolarimizning dushmanlardan Vatanni saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib yetishga yordam beradi; o`quvchilar mehnat hayotning asosi ekanligini, insonlar turmushi mehnat tufayli rivojlanib, farovonlashib borishini bilib oladilar.

Dasturga ko'ra 2-sinf o'quvchilari «*Toshkent*», «*Toshkent metrosi*» mavzusidagi maqolalarni, 4-sinfda esa «*Asrga tatigulik kun*» (*Safar Barnoyev*) asarini o'qish orqali o'tmish ajdodlarimiz, ularning xizmati, vatanimizning hozirgi tarrafiyoti haqida bilib oladilar. Bu maqolalar xalqimizning hayoti, mehnati va kurashi haqida yangi bilim berish bilan birga, bolalarni Vatanga, xalqqa, ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalaydi.

Ilmiy-ommabop maqolalarni izohli o'qish darsini uyushtirishda quyidagicha reja asos qilib olinishi mumkin:

1. O'qiladigan matn yuzasidan bolalar tajribasi va bilimini aniqlash, ularni matn mazmunini tushunishga tayyorlash maqsadida taxminiy suhbat o'tkazish;
2. Maqolani yoki uning ma'lum bir qismini o'qish, o'quvchiga notanish bo'lgan so'zlar ma'nosi ustida ishlash;
3. Maqola rejasini tuzish;
4. O'qilgan maqola yuzasidan suhbat uyushtirish;
5. Matnning asosiy mazmunini aniqlash va reja qismlarini yoritish;
6. Reja asosida maqolani qayta o'qish;
7. Maqolani yaxlit o'qish. Bunda bolalarni qayta hikoyalashga tayyorlash va maqola mazmunini yaxshi o'zlashtirishlariga erishish maqsadi ko'zda tutiladi;
8. Reja asosida qayta hikoyalash;
9. Xulosalash va umumlashtirish.

Ilmiy-ommabop maqolalarni uzviy birlikda o'rganish o'quvchilarning har bir mavzuda bayon etilgan tarixiy - adabiy hodisalarni, ular o'rtasidagi umumiylikni, har bir davrga ega xususiyatlarni anglab olishlarini ta'minlaydi. Ular bolalarni kelgusida gazeta va jurnallarni o'qishga tayyorlaydi, ijtimoiy - siyosiy, tabiatshunoslik atamalarini o'zlashtirishga yordam beradi, ularning mantiqiy tafakkurini va nutqini o'stiradi.

2.2. Ilmiy ommabop asarlarni o'rgatish mavzusidagi dars namunasi.

Ilmiy-ommabop asarlar turkumidan "Istiqlol tengdoshlari" bellashuvi ssenariysi. Bellashuv yoshi istiqlool bilan teng bo'lgan talabalar o'rtasida o'tkaziladi. Ulardan teng kishilardan iborat ikkita jamoa tuziladi.

Boshlovchi: - Bu shunday Vatanki, bog'lari bo'ston,

Tinchlik shiori bor – dunyoda doston.

Maqsadi – farovon kelajak qurmoq,

Alpomish farzandlar sarhadda posbon.

Moziy varag'ida sharaflı bitik,

Mustaqil yurtimning ulug'dir nomi.

Tengdoshlar safida bayrog'I bor tik,

Buyuk minbarlarda dono kalomi.

Bunda Afrosiyob, bunda Registon,

Dobus qal'asida tariximiz jam.

Toshkent, Samarqand-u, Buxoro, Xiva,

Yer yuzin sayqali ham Bog'i Eram.

Ha, azizlar! Biz ana shunday jannatmakon va qutlug' Vatanda yashamoqdamiz. Eng asosiysi, shunday Vatanda ozod va hur yashayotganimizga, mustaqillikka erishganimizga ham, mana 18 yil bo'ldi. 18 yil ko'hna tarix oldida hech qancha vaqt bo'lmasa-da, o'tgan davr xalqimiz uchun g'oyat mas'uliyatli, salmog'i asrlar barobar muddat bo'ldi. Yana bir muhim jihati borki, o'tgan mana shu muddat ichida siz, aziz talabalar tug'ilib, unib-o'sdingizlar va bilimlaringizni yanada oshirish maqsadida akademik litseyimizning talabalari bo'ldingizlar.

Bugungi bellashuvimizda akademik litseyimizning talabalar uyida yashovchi yoshi istiqlool bilan teng bo'lgan talabalar o'z bilim va mahoratlarini sinab ko'radilar. Bunday talabalardan iborat ikkita jamoa tuzilgan hozir qarsaklaringiz ostida "Nihol" va "Parvoz" guruhlarini davraga taklif qilamiz.

“Nihol” va “Parvoz” guruhlari davraga chiqishib, o‘zlariga ajratilgan stol atrofidan joy olishadi.

Boshlovchi: - Endi sizlarni jamoa a‘zolari bilan tanishtirib o‘taman:

“Nihol” jamoasi a‘zolari – Hamroz Jasparov, Zulayho Mirzayeva, Zilola Saidqulova hamda jamoa sardori – Sanjar Boboqulov.

“Parvoz” jamoasi a‘zolari – Akbar Ergashev, Sherbek Norbekov, Sevara Usmonova hamda jamoa sardori – Karima Ibragimova.

Boshlovchi: - Jamoalarning shartlarni qaydarajada bajarganliklarini baholab borish uchun hakamlar hay‘ati tuzilgan. Marhamat, ular bilan tanishing:

Bahriddin Xudoyberdiyev – ona tili va adabiyot kafedrası o‘qituvchisi, hakamlar hay‘ati raisi.

Jamoliddin Ismoilov – ona tili va adabiyot kafedrası o‘qituvchisi, hakamlar hay‘ati a‘zosi.

Furqat Safarov – ona tili va adabiyot kafedrası o‘qituvchisi, hakamlar hay‘ati a‘zosi.

Muqaddam Haqberdiyeva - talabalar uyi bosh tarbiyachisi.

Endi bellashuvimizning birinchi shartini boshlashdan oldin qaysi jamoa birinchi bo‘lib shartlarni bajarishini aniqlab olamiz. Buning uchun har ikkala jamoaning sardorlarini o‘rtaga taklif qilamiz. Marhamat!

Jamoa sardorlari chiqishadi.

Boshlovchi: - Sizlarga shunday topshiriq: sizlar yurtimizdagi tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan joy nomlari bo‘yicha so‘zlar zanjiri tuzasizlar. Kimki zanjirni uzmay davom ettira olsa, uning jamoasi shartlarni birinchi bo‘lib bajarish huquqini qo‘lga kiritadi. Shart tushunarli bo‘lsa, boshladik!

Shart bajariladi.

Boshlovchi: - Demak, so‘zlar zanjirini uzmasdan oxirigacha davom ettirgan “Parvoz” jamoasi bellashuv shartlarini birinchi bo‘lib bajaradilar. Sardorlar o‘z joylariga borib o‘tirishlari mumkin.

Dunyoda hech bir nom, hech bir ism bekordan bekorga qo'yilmaydi. Unda ma'lum bir maqsad, ma'lum bir ma'no yashiringan bo'ladi. Bellashuvimizning birinchi sharti bevosita shu narsa bilan bog'liq. Bu shartimiz "Ismingni ayt, birodar" deb nomlanadi. Bu shartga ko'ra, har bir jamoa nima sababdan guruhlariga shu nomni tanlaganliklarini hamda har bir jamoa a'zosi o'z ismlarining ma'nolarini sharhlab beradilar. Shartni boshlab berish uchun navbatni "Parvoz" guruhiga beramiz.

"Parvoz" jamoasi shartni bajaradi.

Boshlovchi: - Endi birinchi shart bo'yicha "Nihol" jamoasiga navbatni beramiz.

"Nihol" jamoasi shartni bajaradi.

Boshlovchi: - Mana, azizlar, jamoalarning birinchi shart bo'yicha chiqishlarini tomosha qildingiz. Endi ularning shartlarni qaydarajada bajarganliklarini baholash uchun so'zni hakamlar hay'atiga beramiz.

Hakamlar hay'ati jamoalarning shartlarni qay darajada bajarganliklarini sharhlab, har bir guruhga baho qo'yadilar.

Boshlovchi: - Rahmat, endi ikkinchi shartga o'tamiz. Bu shartimiz "Istiqlol odimlari" deb nomlanadi. Shartga ko'ra, har bir jamoaga Istiqlol yillarida yurtimizda hayotning barcha jabhalariga doir amalga oshirilgan ishlar bo'yicha to'rttadan savol beriladi. Jamoalar shu savollarga javob berishlari kerak.

Bu shartni ham "Parvoz" jamoasi boshlab beradi.

"Parvoz" jamoasi uchun savollar:

1. O'zbekistonning mustaqilligini qaysi davlat birinchi bo'lib tan oldi?
2. Milliy istiqlol g'oyasining bosh vazifasi nima?
3. Iqtidorli qizlarni rag'batlantitish, ularning qobiliyatlarini yanada o'stirish uchun qanday davlat mukofoti ta'sis etilgan? Bu mukofotga sazovor bo'lganlarga misol keltiring.
4. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi qanday ta'lim turlaridan iborat?

"Parvoz" jamoasi savollarga javob berib, shartni bajaradi.

Boshlovchi: - Endi savollarga javob berish navbati "Nihol" jamoasiga.

"Nihol" jamoasi uchun savollar:

1. Sohibqiron Amir Temur tavalludiga bag'ishlangan bayram tadbirlari qaysi jahon tashkiloti tomonidan qachon va qayerda o'tkazildi?
2. Yurtimizga diniy ekstremistik oqimlar tajovuzi qaysi yillarda bo'ldi?
3. San'at sohasida yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida qanday davlat mukofot ta'sis etilgan? Bu mukofotga sazovor bo'lganlarga misol keltiring.
4. Davlat tili to'g'risidagi Qonun qachon qabul qilindi? U qanday ahamiyatga ega bo'ldi?

"Nihol" jamoasi savollarga javob berib, shartni bajaradi.

Boshlovchi: - Mana, jamoalarning ikkinchi shartni qanday bajarganliklariga guvoh bo'ldingiz. Endi ularning shartlarni qaydarajada bajarganliklarini baholash uchun so'zni hakamlar hay'atiga beramiz.

Hakamlar hay'ati jamoalarning shartlarni qay darajada bajarganliklarini sharhlab, har bir guruhga baho qo'yadilar.

Boshlovchi: - Endi bellashuvimizning uchunchi shartiga o'tamiz. Bu shart "She'riyat bo'stonida" deb nomlanadi. Shartga ko'ra, har bir jamoadan bittadan adabiyot ixlosmandini davraga taklif qilamiz.

Har ikkala jamoadan bittadan a'zo o'rta chiqadi.

Boshlovchi: - Sizlar ikkalangiz hozir o'zaro bahri bayt o'ynaysizlar. Shartimiz tushunarli bo'lsa, boshladik.

Shart bajariladi.

Boshlovchi: - Mana, guvohi bo'lganingizdek, har ikkala jamoaning she'riyat ixlosmandlari o'zaro kuch sinashdilar. Shartning qaydarajada bajarilganligini baholash uchun so'zni hakamlar hay'atiga beramiz.

Hakamlar hay'ati jamoalarning shartlarni qay darajada bajarganliklarini sharhlab, har bir guruhga baho qo'yadilar.

Boshlovchi: - Nihoyat, bellashuvimizning oxirgi shartiga yetib keldik. So'nggi shartimiz "Istiqlol mening nigohimda" deb nomlanadi. Shartga ko'ra, har bir jamoa Istiqlol haqidagi fikrlarini she'r, qatra yoki biror badiiy-tasviriy matn orqali

namoyon etishlari kerak. Bu shartga tayyorlanish uchun jamoalarga 5 daqiqa vaqt beriladi. Shartimiz tushunarli bo'lsa, boshladik.

Jamoalar shartni bajarishga kirishadilar.

Boshlovchi: - Jamoalar shartni tayyorlab bo'lgunlariga qadar tomoshabinlar o'rtasida Vatan, Istiqlol va ona haqidagi she'rlardan mushoira o'tkazamiz.

Tomoshabinlar o'rtasida mushoira o'tkaziladi.

Boshlovchi: - Vaqtimiz tugadi. So'nggi shartni bajarish uchun navbatni "Parvoz" guruhiga beramiz.

"Parvoz" jamoasi shartni bajaradi.

Boshlovchi: - Endi oxirgi shart bo'yicha "Nihol" jamoasiga navbatni beramiz.

"Nihol" jamoasi shartni bajaradi

Boshlovchi: - Mana, jamoalarning so'nggi – to'rtinchi shartni qanday bajarganliklariga guvoh bo'ldingiz. Endi ularning shartlarni qaydarajada bajarganliklarini baholash hamda umumiy baholarni e'lon qilish uchun so'zni hakamlar hay'ati raisiga beramiz.

Hakamlar hay'ati raisi jamoalarning shartlarni qay darajada bajarganliklarini sharhlab, har bir guruhga baho qo'yadi va umumiy bahoni e'lon qiladi.

Boshlovchi: - Demak, bugungi "Istiqlol tengdoshlari" bellashuvimizda ishtirok etgan "Parvoz" va "Nihol" jamoalari to'rtala shart bo'yicha 18 baldan to'plashib, durang natijaga ega bo'lishdi. Ya'ni bu bellashuvda do'stlik g'alaba qozondi. Barchangizga e'tiborlaringiz uchun rahmat!

XULOSA

O`qish darslari boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha predmet dasturlarining bo'limlari bilan bevosita bog'liq mashg'ulotlarning yangiligini ta'minlashga qaratilgan innovatsion texnologiyalar asosida dars o'tish jarayoni tadqiqotimizning ob'yektini tashkil etadi.

O`qish darslari boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha predmet dasturlarining bo'limlari bilan bevosita bog'liq mashg'ulotlarning yangiligini ta'minlashga qaratilgan innovatsion texnologiyalar asosida dars o'tish jarayoni tadqiqotimizning ob'ektini tashkil etadi. 2-sinf o`qish darslari, o`qish samaradorligini ijobiy tomonga ta'sir qilishning eng qulay usulidir. Sinfdan tashqari 2-sinf o`qish darslari boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha predmet dasturlarining bo'limlari bilan bevosita bog'liq. 2-sinf o`qish darslarida o'tilgan mavzular asosida badiiy kitoblar axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb metodik manba ekanligini aniqlash, ularning didaktik asosini belgilash ham mashg'ulotning predmeti hisoblanadi.

O`quvchilarni mustaqil izlanishga o`rgatish uchun ularga oldindan yozuvchi yoki asar yozilgan davr haqida kitoblar, manbalar tavsiya etilib, ulardan ma'lumotlar to'platiladi, albomlar tayyorlatiladi, so'ng o`quvchilar o'zlari aniqlagan ma'lumotlarni o`qib oyi so'zlab beradilar. Sinfdan tashqari o`qishning maqsadi kichik yoshdagi o`quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq o'gzaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklashga oid mashg'ulot ishlanmalarini, uning maqsadi, mazmuni, tipi, qurilishiga oid yangi tushunchalari bilan boyitishning didaktik asoslari ko'rib chiqildi hamda ilmiy-metodik tavsiyalar bilan boyitish nazarda tutildi.

Sinfdan sinfga ko'chish bilan yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi o`quvchilar bilimi ortib boradi. Asar muallifi bilan tanishtirishga qo'yilgan talablar ham ko'payadi. O`qituvchi qisqa ma'lumot berishdan yozuvchi hayoti bilan to'liqroq

tanishtirishga o'tadi. Bunda u kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yoshiga mos imkoniyatlarni, ular yozuvchi bilan qay darajada tanish ekanligi va uning asarlaridan nimalarni o'qiganligini hisobga oladi.

Bugun jamiyatimiz oldida turgan bu ulug'vor va muborak vazifalarni hal qilish eng avvalo ta'lim - tarbiya, ma'rifat masalasiga borib taqaladi.

O'zbekistinning birinchi Prezidenti Islom Karimovning va Respublika hukumatining o'sib kelayotgan avlodga e'tibori, Kadrlar tayyorlash milliy dasturni amalga oshirish sohasidagi siyosati aynan shunday mohiyatga egadir.

“...Kadrlarni puxtaroq qilib tayyorlamasdan, uning qadriga yetmasdan, ularga ishonmasdan va qo'llab – quvvatlamasdan, o'ylaymanki, biron bir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o'gartirib bo'lmaydi”,-degan edi Islom Karimov O'zbekiston Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida.

“Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni yechish zarurati tug'ilmasin, gap oxir oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, biznin kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi o'rnimizga kim kelishi yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashga bog'liq”- deb aytadi Prezident I.A. Karimov Oily Majlisning XIV sessiyasidagi o'z nutqida.

Shunday ekan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali dars o'tishni zamonning o'zi talab qilmoqda va bunda o'qituvchilardan katta mahorat talab etiladi

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. "Ma'naviyat", 2008- yil
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. –T: O'zbekiston, 1994-yil.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T: O'zbekiston, 1997-yil.
4. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X. Ona tili o'qitish metodikasi. (Darslik) Toshkent, Noshir, 2009
5. Abduvaliyev Y. Yangi pedagogik texnologiya muammolari. Til va o'qish ta'limi. 2011, №1. –B. 47.
6. Abdurazzoqov A. 2-sinf o'qish darslarida muammoli vaziyat yaratish. Til va o'qish ta'limi. 2003 №34. B. 1619
7. O'qish dasturi. V-XI sinflar uchun. –T.: O'qituvchi, 2011. 59b.
8. Aliyev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. –T.:
9. Abdullaeva Q. Raxmonbekova S. 2-sinfda. O'qish darslari. (O'qituvchi kitobi.) Toshkent. O'qituvchi, 2012 y.
10. Abdullaeva Q. va boshqalar. O'qish kitobi. 2-sinf Toshkent. O'zbekiston, 2012-yil.
11. Qosimova K., Fuzailov S. «Ona tili», 2-sinf uchun, T., «O'qituvchi», 2012-yil.
12. 2-sinfda o'qitish. Tuzuvchi Mavlonova R.A.T., «O'qituvchi», 2012- y.
13. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. T., «O'qituvchi», 2012 -yil.
- 13. Elektron ta'lim resurslari:**
 1. www.ziynet.uz
 2. www.pedagog.uz
 3. www.tdpu.uz

Mundarija

Kirish.....	
Asosiy qism.....	
1.BOB. 2-sinf o'qish darslarining maqsadi va vazifalari.....	
1.1. O'qish malakalari va ularni takomillashtirish usullari.....	
1.2.Boshlang'ich sinfda 2-sinf o'qish darslari va o'qish turlari.....	
2.BOB. 2-sinf o'qish darsligida umumlashtiruvchi darslarni tashkil etish usullari	
2.1.2-sinf o'qish darsligida ilmiy ommabop asarlarni o'qitish metodikasi.....	
2.2. Ilmiy ommabop asarlarni o'rgatish mavzusidagi dars namunasi.....	
Xulosa.....	
Adabiyotlar ro'yxati.....	